XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-82, (+99876) 224-12-96

2023 - yil 15 - may VI-60-51-8-121-K/23 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahar mahalliy budjetining 2023-yil I chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni maqsadli ishlatilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq Termiz shahar mahalliy budjetining joriy yil 1-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobiga shakllangan mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha Termiz shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i O‘.Kuchkinovning hisobotini shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq Termiz shahar mahalliy budjetining joriy yil 1-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobiga shakllangan mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha Termiz shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i O‘.Kuchkinovning hisobotini shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning shahar budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar mahalliy budjetining joriy yil I chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari **1 180,1 mln. so‘m**ni tashkil etganligini inobatga olib;

Shahar mahalliy budjetining joriy yil I chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan zarur xarajatlarga yo‘naltirilgan **1 110,0 mln. so‘m** mablag‘lari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘hshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Kalandarov), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Kuchkinov), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (M.Shaymardanov) mablag‘ oluvchilarning rahbarlari bilan birgalikda:

shahar budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha xujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

6. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **Sh.Kalandarov** va shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i **O‘.Kuchkinov** shahar mahalliy budjetining daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishlari va shahar Kengashi sessiyalarida har chorak yakuni bilan hisobot berib borsinlar.

7. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash Termiz shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **Sh.Kalandarov**, bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi **(X.Fayzullayev)** zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **O‘.I.To‘rayev**

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining
2023 yil 15 maydagi
VI-60-51-8-121-K/23-son qaroriga
1-ilova

Termiz shahar mahalliy budjetining 2023-yil I chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larning xarajatlarga yo‘naltirilishi to‘g‘risida

T A Q S I M O T I

(ming so‘mda)

№	Tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Ajratilgan mablag‘ miqdori
1	Termiz shahar hokimligiga	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga mablag‘ yo‘naltirish xarajatlariga	177 000,0
		“Ayollar daftari” jamg‘armasiga mablag‘ yo‘naltirish xarajatlariga	177 000,0
		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'munlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5072- sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar shahar hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlanishi uchun	354 000,0
		Termiz shahar hokimligining qo‘riqlash xizmati xarajatlari uchun	50 000,0
		Termiz shahar hokimligi balansidagi xizmat avtomashinalariga yoqilg`i quyish xarajatlari uchun	50 000,0
		Termiz shahar hokimligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun	30 000,0
2	Termiz shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga	Termiz shahrining markaziy ko‘cha atroflarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish maqsadida, to‘shama gazonlar sotib olish va yotqizish xarajatlari uchun	150 000,0

3	Termiz shahar hokimligi huzuridagi San’at saroyi hududini obodonlashtirish, “Xotira maydoni” yodgorlik kompleksi va Alpomish haykaliga tutash hududlarini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamentiga	Termiz shahridagi San’at saroyi hududida landshaft dizayn va dekoratsiyalar asosida bezash ishlarini olib borish, turli haykalchalar va stendlar tayyorlash hamda ularni o‘rnatish xarajatlari uchun	50 000,0
4	Termiz shahar Xalq ta’limi bo‘limiga	Termiz shahridagi umumta’lim maktablarida faoliyat yuritib kelayotgan rossiyalik mutaxassislarning 2022–2023-yil o‘quv yili mobaynida yashab kelayotgan xonadon egalari bilan tuzilgan joriy yilning yanvar, fevral, mart, aprel va may oylari bo‘yicha ijara shartnomalari to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlari uchun	72 000,0
	Jami:	**xxx**	**1 110 000,0**